



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

**GENDER IDENTITETINING TIL ORQALI KONSTRUKSIYALANISHI: ZAMONAVIY
LINGVISTIK NAZARIYALAR VA DISKURSIV AMALIYOTLAR TAHLILI**

Baxtiyorova Feruza Xurshidbek qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, tayanch doktorant (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqola gender tushunchasining ilmiy diskursga kirib kelishi, uning semantik va konseptual mazmunini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda lingvistik genderologiyaning shakllanish bosqichlari, rivojlanish dinamikasi hamda metodologik asoslari tizimli ravishda yoritiladi. Shuningdek, gender tilshunosligining tadqiqot obyekti, predmeti va asosiy muammolari nazariy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada o'zbek, ingliz va rus tilshunosligi doirasida olib borilgan gendernga oid ilmiy izlanishlar qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: gender, lingvistik genderologiya, diskurs, sotsiolingvistika, gender identiteti, lingvistik reprezentatsiya.

**КОНСТРУИРОВАНИЕ ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ ЯЗЫКА:
АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ И ДИСКУРСИВНЫХ
ПРАКТИК**

Бахтиёрова Феруза Хуршидбек кизи

Ташкентский государственный университет востоковедения, базовый докторант (PhD)

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию процесса включения понятия гендера в научный дискурс, а также теоретическому осмыслению его семантического и концептуального содержания в рамках современных лингвистических подходов. В работе системно рассматриваются этапы формирования, направления развития и методологические основы лингвистической гендерологии. Кроме того, теоретически обосновываются объект, предмет и ключевые вопросы гендерной лингвистики. В статье представлен сравнительный анализ гендерных исследований в узбекской, английской и русской лингвистике.

Ключевые слова: гендер, лингвистическая гендерология, дискурс, социолингвистика, гендерная идентичность, языковая репрезентация.

**CONSTRUCTION OF GENDER IDENTITY THROUGH LANGUAGE: ANALYSIS OF
CONTEMPORARY LINGUISTIC THEORIES AND DISCURSIVE PRACTICES**

Bakhtiyorova Feruza Khurshidbek qizi

Tashkent State University of Oriental Studies, Doctoral student (PhD)

Abstract

This article explores the incorporation of the concept of gender into scientific discourse and provides a theoretically grounded analysis of its semantic and conceptual dimensions within contemporary linguistic frameworks. The study systematically examines the stages of development, theoretical foundations, and methodological approaches of linguistic gender studies. In addition, it clarifies the object, scope, and key research questions of gender linguistics from a theoretical perspective. The paper also offers a comparative analysis of gender-related research conducted within Uzbek, English, and Russian linguistic traditions.

Keywords: gender, linguistic gender studies, discourse, sociolinguistics, gender identity, linguistic representation.

Hozirgi globallashuv sharoitida til ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va gender identitetining shakllanishida muhim diskursiv mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yo'nalish, eng avvalo, tilshunoslikda professional hamda maishiy muloqotning gender jihatini, til xususiyatlari va unda jinsning namoyon bo'lishi o'rtasidagi munosabatni o'rganishni asosiy vazifalardan biriga aylantirmoqda. Gender inson haqidagi barcha fanlar tomonidan turli yo'llar bilan ko'rib chiqiladigan va o'rganiladigan universal hodisalardan biridir. Jins masalasiga tilshunoslik doirasida uzoq vaqt davomida yetarli darajada e'tibor berilmagan bo'lsa-da, so'nggi davr ilmiy tadqiqotlari erkak va ayolga xos xulq-atvorning nazariy

modellarini shakllantirish uchun muhim ilmiy asos yaratmoqda. Shu bilan birga, mazkur yoʻnalishda qator masalalar hanuzgacha bahsli boʻlib qolmoqda hamda ularni chuqurroq oʻrganish zarurati saqlanib qolmoqda.

Zamonaviy gumanitar fanlarda gender tushunchasi biologik jins bilan cheklanmay, ijtimoiy, madaniy va diskursiv omillar bilan shakllanadigan murakkab ijtimoiy konstrukt sifatida talqin qilinadi. Gender shaxsning jamiyatda egallagan mavqei, unga yuklatilgan ijtimoiy rollar, xulq-atvor meʼyorlari hamda nutqiy faoliyati orqali namoyon boʻladi. Shu bois gender masalasi tilshunoslik, sotsiologiya, antropologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlar kesishmasida tadqiq etiladigan koʻp qirrali tushuncha hisoblanadi.

Lingvistik nuqtayi nazardan gender til va nutq tizimida aks etuvchi ijtimoiy kategoriya sifatida qaraladi. Gender lingvistik doirasida erkaklar va ayollarning nutqiy xulq-atvori, leksik tanlovi, grammatik vositalardan foydalanishi, nutq strategiyalari va kommunikativ uslublari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvda gender biologik omil emas, balki til orqali muntazam ravishda qayta ishlab chiqiladigan va diskursda mustahkamlanadigan ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Gender” atamasi ingliz tiliga lotin tilidan oʻzlashgan boʻlib, dastlab grammatik jins kategoriyasini ifodalash uchun qoʻllanilgan. Biologik jins va ijtimoiy jins oʻrtasidagi konseptual farqlash gʻoyasi ilk bor amerikalik antropolog Margaret Mead tomonidan 1935-yilda chop etilgan “Sex and Temperament in Three Primitive Societies” nomli asarida ilmiy asosda ilgari surilgan. Tadqiqotchi jinsga oid madaniy tafovutlarni tizimli ravishda oʻrgangan ilk olimlardan biri sifatida eʼtirof etiladi [15; 26–27-b.]. “Gender” tushunchasi XX asrning 70-yillari boshlarida feministik harakat hamda feministik nazariyaning jadal rivojlanishi natijasida keng ilmiy muomalaga kirib keldi. Gender ijtimoiy psixologiyaning muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etilib, insonning ijtimoiy jinsini ifodalovchi kategoriya sifatida talqin etiladi. Erkaklik va ayollik biologik jins bilan bogʻliq boʻlsa, gender ijtimoiy jinsni anglatib, erkak va ayolning jamiyatdagi oʻrni, ijtimoiy roli, nutqiy xulqi hamda huquqiy maqomini oʻz ichiga oladi.

Gender va til munosabatlarini ilmiy asosda tadqiq etgan dastlabki ishlardan biri R. Lakoffning “Language and Woman’s Place” asari hisoblanadi [8; 83-b.]. Muallif ayollar nutqiga xos boʻlgan yumshatish, noaniqlik va hissiy birliklarning ustuvorligini taʼkidlab, gender lingvistikasining nazariy poydevorini yaratdi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu yondashuv tanqidiy qayta koʻrib chiqilib, gender farqlari biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy sharoitlar bilan belgilanishi asoslab berildi. Gender tilshunosligi ayrim ilmiy manbalarda “gender lingvistikasi” yoki “lingvistik genderologiya” atamalarini bilan ham ifodalanadi. Mazkur terminlar oʻzaro sinonimik birliklar sifatida qoʻllanilib, bir xil mazmunni anglatadi. Ushbu yoʻnalishning shakllanishi XX asrning soʻnggi choragiga toʻgʻri kelib, u zamonaviy tilshunoslikning nisbatan yangi, ammo jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida qaraladi. Gender lingvistikasi XX asrning oxirgi bosqichida sotsiolingvistikaning tarkibiy yoʻnalishi sifatida shakllangan boʻlsa-da, til va jins oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni anglashga qaratilgan ilmiy qarashlarning ildizlari ancha qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xususan, biologik jinsning til tizimidagi aks etishi masalasi ilk bor antik davr mutafakkirlari — Platon va Aristotel tomonidan muhokama qilingan boʻlib, ular tilshunoslikdagi jins kategoriyasining mavjudligini tabiatda erkak va ayol jinsining mavjudligi bilan izohlashga harakat qilganlar [11; 56-b.].

Gender va til oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrgangan olimlardan biri daniyalik tilshunos Yens Otto Yaspersendir. U 1925-yilda chop etilgan “Language: Its Nature, Development and Origin” asarida ayollar va erkaklar nutqi oʻrtasidagi farqlarni keng yoritib, tilning jamiyatdagi oʻrni, tarixiy rivojlanishi, bolalar nutqi hamda chet tillar taʼsiri kabi masalalarni ham tahlil qilgan [16; 91-b.]. Mazkur asarda maxsus bob genderni oid lingvistik farqlarga bagʻishlangan. Yaspersen jinslararo nutqiy farqlarni fonetik darajada aniq isbotlay olmagan boʻlsa-da, leksik tanlov va soʻz boyligi jihatidan farqlarni eksperimental kuzatishlar orqali asoslashga harakat qilgan. Natijalarga koʻra, erkaklar koʻproq tabiat va hayvonot dunyosiga oid leksik birliklarni tanlagan boʻlsa, ayollar mato turlari va kiyim-kechak bilan bogʻliq soʻzlarga koʻproq murojaat qilganlar. Yaspersen bu farqlarni jinsga xos ijtimoiylashuv jarayoni, yaʼni erkak va ayollarning manfaat hamda faoliyat sohalari tarixan turlicha shakllanganligi bilan izohlaydi. Shu bilan birga, u ayollar nutqiga nisbatan ayrim salbiy baholarni ham ilgari surib, ularning kuchaytiruvchi birliklardan koʻproq foydalanishi hamda baʼzan gaplarni toʻliq yakunlamasligini fikrning spontanligi bilan izohlaydi.

Amerikalik tilshunos va antropolog E. Sapir “dunyodagi barcha tillar oʻz estetik qiymati va murakkablik darajasi jihatidan teng” degan ilmiy qarashni ilgari surgan olimlardan biri sifatida tanilgan. U

gender va til o'rtasidagi munosabatlarga bag'ishlangan tadqiqotlarida ham erkak va ayol nutqidagi o'ziga xos xususiyatlarni tahlil qilgan. Xususan, 1929-yilda chop etilgan "Male and Female Speech in Yama" asarida turli jins vakillarining nutqida kuzatiladigan lingvistik farqlarni etnolingvistik yondashuv asosida yoritib, ularning kommunikativ xulq-atvori va til tanlashidagi o'ziga xos jihatlarni ilmiy tahlil qilgan [9; 642-b.]. Keyingi davrda bu yo'nalish amerikalik tilshunos M. Key va uning shogirdi R. Lakoff tadqiqotlarida rivojlantirildi. Ular ayollar nutqiga xos lingvistik xususiyatlar, uning ijtimoiy shartlanganligi hamda kommunikativ strategiyalarini ilmiy muhokamaga olib chiqib, "ayollar tili" haqidagi qarashlarning keng jamoatchilik va akademik doiralarda shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdilar [14; 234-b.]. M. Key o'z tadqiqotlarida nutqiy xulq-atvorning gender jihatlarini ham tahlil qilgan. U ayollar nutqini ko'pincha ehtiyotkorlik va ijtimoiy moslashuvga yo'naltirilgan "uzr so'rash tili" sifatida talqin qilsa, erkaklar nutqini fikrni qat'iy ifodalash va izohlashga asoslangan "tushuntirish tili" sifatida tavsiflaydi [14; 235-b.].

Amerikalik tilshunos Robin T. Lakoff 1973-yilda e'lon qilingan va 1975-yilda kitob shaklida chop etilgan "Language and Woman's Place" asarida sotsiolingvistika doirasida ayollar nutqiga oid qator muhim nazariy g'oyalarni ilgari surdi [8; 83-b.]. Mazkur tadqiqotda ingliz tilining androtsentrik xususiyati ko'plab lingvistik misollar asosida tahlil qilinib, til tizimida erkak markazli qarashlarning aks etishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. R. Lakoff o'z tadqiqotlarida ayollar nutqini ishonchsizlik, muloyimlik va ortiqcha xushmuomalalik kabi xususiyatlar bilan tavsiflab, buni ularning jamiyatda shakllangan bo'ysunuvchi ijtimoiy rolgga moslashuvi bilan izohlaydi. Uning fikricha, ayollar kommunikativ xulq-atvori ijtimoiy normalar ta'sirida itoatkorlik va ehtiyotkorlikka yo'naltirilgan.

1990-yillarning o'rtalaridan boshlab lingvistik genderologiya rus tilshunosligida mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllana boshladi. Ushbu yo'nalishning konseptual va metodologik asoslari A. V. Kirilina tomonidan tizimlashtirilib, u genderni til tizimi, nutqiy faoliyat va lingvistik ong bilan uzviy bog'liq kompleks fenomen sifatida talqin etdi. Rus tilshunosligida gender yondashuvining rivojiga V. N. Telia (lingvomadaniy tahlil), I. I. Xaleeva (kommunikativ va pragmatik aspektlar), O. S. Kamenskaya hamda M. S. Kolesnikova (diskursiv va sotsiolingvistik yondashuvlar) sezilarli hissa qo'shdilar. Ularning tadqiqotlari tilni gender jihatdan tahlil qilish orqali inson omilini, ya'ni ijtimoiy identifikatsiya va kommunikativ strategiyalarni yanada chuqurroq anglash imkonini berdi [12; 73-b.]. O'zbek tilshunosligida gender nazariyasi nisbatan kech shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda u tilshunoslikning mustaqil va ko'p qatlamli yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbek tilshunosligida gender masalalari G. I. Ergasheva, N. Z. Nasrullayeva, M. A. Abdurahobova, F. T. Musayeva, Sh. Q. Gulyamova kabi olimlarning tadqiqotlarida frazeologiya, leksika, lingvokulturologiya va qiyosiy-tipologik yo'nalishlarda keng yoritildi. Xususan, Sh. Iskandarova ishlari o'zbek nutq odobi va kommunikativ xulq-atvorida gender farqlarini pragmatik va sotsiolingvistik jihatdan asoslab berdi. Hozirgi bosqichda o'zbek lingvistik genderologiyasi lingvokulturologik, kognitiv va diskursiv paradigmalar kesimida rivojlanib, tilni faqat struktura emas, balki ijtimoiy-madaniy identifikatsiya va kommunikativ xulqning murakkab tizimi sifatida talqin qilmoqda. Dissertatsiyalar va ilmiy nashrlar hajmining ortishi esa ushbu yo'nalishning ilmiy jihatdan barqarorlashib, xalqaro lingvistik tendensiyalar bilan uyg'unlashib borayotganini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til nafaqat ijtimoiy voqelikni aks ettiruvchi vosita, balki uni faol ravishda shakllantiruvchi va mustahkamlovchi ideologik mexanizm sifatida ham faoliyat yuritadi. Ayniqsa, genderga oid stereotiplar va ijtimoiy rollarning shakllanishida til markaziy rol o'ynaydi. Talbot ta'kidlaganidek, til genderlar o'rtasidagi ijtimoiy farqlarni tabiiy hol sifatida emas, balki madaniy va ideologik konstruksiya sifatida mustahkamlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi [1; 345-b.]. Ilmiy adabiyotlar erkak va ayollar nutqida sezilarli diskursiv farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Erkaklar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri, qat'iy va dominant kommunikativ uslubdan foydalanib, ijtimoiy kuch va mavqe ifodasini kuchaytiradilar. Aksincha, ayollar nutqi ko'proq bilvosita, muloyim va ijtimoiy uyg'unlikni saqlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Biroq bu farqlar biologik emas, balki ijtimoiy me'yorlar va gender rollar bilan belgilanadi. Suhbatdagi ustunlik fenomeni ham gender va hokimiyat munosabatlarini ochib beradi. Zimmerman va West tadqiqotlariga ko'ra, aralash jinsli muloqotda erkaklar ayollar nutqini tez-tez bo'lish orqali kommunikativ ustunlikni egallashga intiladi. Bu holat patriarxal ijtimoiy tuzilmaning diskursiv aksi sifatida baholanadi [10; 105–129-b.].

Lakoff ayollar nutqida yumshatuvchi ifodalar, ehtiyotkorlik bildiruvchi til birliklari, tasdiqni tekshiruvchi qo'shimcha savollar hamda kuchaytiruvchi til birliklari nisbatan ko'proq qo'llanilishini ta'kidlaydi. Dastlabki talqinlarda ushbu lingvistik vositalar ayollar nutqida noaniqlik, ishonchsizlik yoki lingvistik zaiflik belgisi sifatida qaralgan. Biroq zamonaviy sotsiolingvistik yondashuvlar bu qarashni qayta

ko‘rib chiqib, mazkur birliklarni faqat “zaiflik ko‘rsatkichi” sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-pragmatik strategiya sifatida talqin qiladi. Xususan, yumshatuvchi ifodalar va tasdiqni tekshiruvchi savollar muloqotdagi keskinlikni kamaytirish, fikrni muloyimlashtirish hamda ehtimoliy qarama-qarshiliklarning oldini olish funksiyasini bajaradi. Bu til birliklari muloqotni hamkorlik asosida qurishga xizmat qilib, asosiy maqsad faqat axborot uzatish emas, balki ijtimoiy munosabatlarda muvozanatni saqlash ekanligini ko‘rsatadi [8; 82–83-b.]. Kuchaytiruvchi til birliklari esa nutqning ta‘sirchanligini oshirish, hissiy munosabatni aniqroq ifodalash va fikrga urg‘u berish uchun ishlatiladi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yumshatuvchi ifodalar, tasdiq savollari va kuchaytiruvchi birliklar ijtimoiy maqom, kommunikativ vaziyat, auditoriya va nutq maqsadiga qarab har ikkala jins vakillari tomonidan ham qo‘llaniladi. Demak, bu hodisa biologik jinsdan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy kontekst va diskursiv sharoit bilan belgilanadi [2; 482–502-b.]. Til gender tengsizligini faqat aks ettiribgina qolmay, uni institutsional va madaniy darajada ham mustahkamlaydi. Tilshunoslar ta‘kidlaganidek, ko‘plab terminlar ayollarning til orqali ko‘rinmasligini yuzaga keltiradi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ta‘lim tizimi ham gender stereotiplarini qayta ishlab chiqaruvchi asosiy diskursiv maydonlardan biridir: erkaklar faol, ratsional va lider sifatida, ayollar esa passiv, emotsional yoki uy-ro‘zg‘or bilan bog‘liq rollarda tasvirlanadi. Bundan tashqari, til ijtimoiy hayotning barcha sohalarida — ish muhitida, ta‘limda, ommaviy axborot vositalarida va raqamli kommunikatsiyada — gender asosidagi kuch munosabatlarini shakllantirishda faol rol o‘ynaydi. Ish joylarida erkaklarga xos deb qaraladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va raqobatga asoslangan kommunikativ uslub ko‘proq qadrlanadi, ayollarning hamkorlikka yo‘naltirilgan nutqi esa ko‘pincha zaiflik sifatida noto‘g‘ri talqin qilinadi [7; 200-b.]. So‘nggi yillarda genderni neytral til (*gender-neutral language*) konsepsiyasi kuchayib bormoqda. Yevropa Ittifoqi va BMT kabi tashkilotlar rasmiy hujjatlarda diskriminatsiyasiz tilni joriy etishga harakat qilmoqda [5; 15–16-b.]. Shu bilan birga, bu jarayon konservativ qarshiliklarga ham uchramoqda, chunki til o‘zgarishi ko‘pincha madaniy identitetga tahdid sifatida qabul qilinadi. Umuman olganda, til gender tengsizlikni kuchaytiruvchi ham, uni inkor etuvchi ham vosita bo‘lishi mumkin. Shu sababli genderni sezgir til siyosatini rivojlantirish, ta‘lim va ommaviy diskurslarda inkluziv yondashuvni kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalarni adolatli lingvistik amaliyotga yo‘naltirish bugungi sotsiolingvistik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

NATIJALAR. Mazkur tadqiqot natijalari gender va til o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning murakkab va ko‘p qatlamli tabiatini yana bir bor tasdiqlaydi. Xususan, aniqlangan lingvistik xususiyatlar gender identitetining biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy omillar asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy lingvistik paradigmalarda ustuvor hisoblangan ijtimoiy konstruktivizm yondashuvi bilan to‘liq mos keladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, gender identiteti til va nutq jarayonida doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladi va diskursiv amaliyotlar orqali mustahkamlanadi. Ayniqsa, nutqiy strategiyalar va kommunikativ uslublardagi gender farqlarining ijtimoiy rollar hamda kuch munosabatlari bilan bog‘liqligi aniqlangan natijalar bilan uyg‘unlashadi. Biroq mazkur farqlarni universal yoki qat‘iy model sifatida talqin qilish mumkin emas, chunki ular ijtimoiy kontekst, madaniy muhit va kommunikativ vaziyatga qarab o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari til tizimida gender stereotiplari va gender bias, ya‘ni genderni nisbatan noxolislik mavjudligini ham ko‘rsatadi. Lingvistik birliklar orqali jamiyatda mavjud ijtimoiy tasavvurlar, rollar va kuch munosabatlari qayta ishlab chiqarilishi kuzatiladi. Bu esa tilning faqat aks ettiruvchi vosita emas, balki ijtimoiy haqiqatni shakllantiruvchi faol mexanizm ekanligini anglatadi. Mazkur jihat lingvistik genderologiyaning zamonaviy yo‘nalishlari uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [15; 188–189-b.]. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda turli lingvistik maktablar doirasida shakllangan genderni oid qarashlar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirilib, gender identitetining diskursiv konstruksiyalanish mexanizmlari tizimli tarzda yoritildi. Shuningdek, turli tillarda genderni xos lingvistik birliklarning umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, tilning gender diskursini shakllantirishdagi roli kompleks yondashuv asosida asoslab berildi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari genderni faqat erkak va ayol binar tizimi doirasida talqin qilish yondashuvining cheklanganligini ham ko‘rsatadi. Gender identitetining performativ va dinamik tabiati uning qat‘iy chegaralarga ega emasligini anglatadi. Shu bois zamonaviy tilshunoslikda gender masalasini o‘rganishda inkluziv va ko‘p o‘lchovli yondashuvlarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda [13; 107–114-b.]. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot ayrim cheklavlarga ham ega. Xususan, tahlil asosan nazariy manbalar va mavjud ilmiy adabiyotlarga tayangan bo‘lib, empirik ma‘lumotlar bazasining cheklanganligi natijalarni umumlashtirish darajasiga ma‘lum ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda real nutqiy materiallar asosida gender va til o‘rtasidagi munosabatlarni empirik jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot

tilning gender identitetini nafaqat ifodalovchi, balki uni faol ravishda shakllantiruvchi asosiy mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Bu esa lingvistik tadqiqotlarda gender masalasini yanada chuqurroq, fanlararo va zamonaviy nazariyalar asosida o'rganish zarurligini belgilaydi.

XULOSA

Gender va til o'rtasidagi munosabatlar zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda murakkab, ko'p qatlamli va dinamik ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilinadi. Ushbu munosabatlar sotsiolingvistika, feministik lingvistika va diskurs tahlili kesishmasida shakllanib, tilning ijtimoiy tizimdagi ideologik va funksional rolini ochib beradi. Tadqiqot natijalari tilning gender identitetini nafaqat aks ettiruvchi, balki uni faol shakllantiruvchi va mustahkamlovchi vosita ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, gender identiteti biologik yoki qat'iy kategoriya emas, balki ijtimoiy amaliyotlar va diskursiv jarayonlar orqali doimiy qayta quriladigan konstruktsiya hisoblanadi. Butlarning performativlik nazariyasiga ko'ra, gender til va ijtimoiy amaliyotlar orqali shakllanadi hamda kontekstga bog'liq holda o'zgaradi. Shu sababli genderni faqat binar tizim, ya'ni erkak–ayol qarama-qarshiligi doirasida talqin qilish yetarli emas.

Tadqiqot natijalari shuni ham tasdiqlaydiki, til gender tengsizlikni nafaqat ifodalaydi, balki uni ijtimoiy institutlar va madaniy normalar orqali qayta ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, til ushbu tengsizlikni qayta talqin qilish va o'zgartirish imkoniyatiga ham ega bo'lib, ijtimoiy o'zgarishlar vositasi sifatida xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalari, ta'lim tizimi va raqamli kommunikatsiya gender stereotiplarini shakllantiruvchi asosiy diskursiv maydonlardir. Shu bois ulardagi til amaliyotlari gender tenglik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va raqamli muhitda gender identitetining yanada diversifikatsiyalashuviga olib kelmoqda. Umuman olganda, tadqiqot genderni sezgir til siyosatini rivojlantirish, inkluziv lingvistik amaliyotlarni kengaytirish va diskriminatsiyasiz kommunikatsiyani kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa nafaqat lingvistik tenglik, balki ijtimoiy adolat va inkluzivlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bamman D., Eisenstein J., Schnoebelen T. Gender in Social Media and Language Modeling // *Journal of Computational Linguistics*. – 2022. – Vol. 48(2). – 345 p.
2. Cameron D. Language, Gender, and Sexuality: Current Issues and New Directions // *Applied Linguistics*. – 2005. – Vol. 26(4). – P. 482–502.
3. Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language. – New York: Routledge, 2013. – 262 p.
4. Gray J. Men Are from Mars, Women Are from Venus. – New York: Harper Collins, 1992. – 368 p.
5. Hellinger M., Bussmann H. (eds.). Gender across Languages: The Linguistic Representation of Women and Men. – Vol. 1. – Amsterdam: John Benjamins, 2001.
6. Jespersen O. Language: Its Nature, Development and Origin. – London: Allen and Unwin, 1922. – 443 p.
7. Key M. R. Male and Female Language. – New York: The Scarecrow Press, 1975. – 200 p.
8. Lakoff R. Language and Woman's Place. – New York: Harper and Row, 1975. – 83 p.
9. Sapir E. Male and Female Speech in Yama // *Selected Writings in Language, Culture and Personality*. – Berkeley: University of California Press, 1929. – 642 p.
10. Zimmerman D. H., West C. Sex Roles, Interruptions and Silences in Conversation // *Language and Sex: Difference and Dominance* / eds. B. Thorne, N. Henley. – Newbury House, 1975. – P. 105–129.
11. Гаврилова Ю. Н. Конструирование гендера в речи мужчин и женщин на материале итальянского телевизионного дискурса. – СПб., 2018. – 56 с.
12. Голенищева Е. М. Гендерные особенности идиостиля автора (на материале современной британской прозы). – Екатеринбург, 2016. – 73 с.
13. G'ulyamova Sh. Gender tushunchasi va uning lingvistikada tutgan o'rni // *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti*. – 2019. – № 2(74). – B. 107–114.
14. Зиновьева Е. С. Языковые механизмы конструирования маскулинности и феминности в дискурсе глянцевого журналов (на материале английского и русского языков). – Ярославль, 2018. – 235 с.
15. Кирилина А. В. Гендер: Лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999. – 189 с.
16. Yusupova G. Nemis tili frazeologiyasida gender muammosi: magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zMU, 2020. – 91 b.